



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 276 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.*

## **BOSH MUHARRIR:**

**Karimova E'zoza Gapirjanovna** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Ibragimov X.I.** – pedagogika fanlari doktori, akademik  
**Shoumarov G'.B.** – psixologiya fanlari doktori, akademik  
**Qirg'izboyev A.K.** – Tarix fanlari doktori, professor  
**Jamoldinova O.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Sharipov Sh.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Shermuhhammadov B.Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Ma'murov B.B.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Madraximova F.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Kalonov M.B.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Nabiyev D.X.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Qo'ldoshev Q. M.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Ikramxanova F.I.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Ismagilova F.S.** – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
**Stoyuxina N.Yu.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
**Magauova A.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
**Rejep O'zyurek** – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
**Wookyu Cha** – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
**Polonnikov A.A.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
**Mizayeva F. O.** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
**Baybayeva M.X.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Muxsiyeva A.T.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Aliyev B.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**G'afurov D. O.** – falsafa fanlari doktori (Phd)  
**Shomurodov R.T.** – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Mirzayeva F.O.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Jalilova S.X.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Bafayev M.M.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Usmonova D.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
**Saifnazarov I.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Nematov Sh.E.** – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
**Tillashayxova X.A.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Yuldasheva F.I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Doniyorov S. M.** – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
**Yuldasheva D.B.** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
**Tangriyev A. T.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
**Ashurov R. R.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Panjiyev M. A.** – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
**Xudayberganov N. A.** – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli:<br>tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....                           | 14  |
| <b>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</b>                                                                           |     |
| O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....                                                                                 | 20  |
| <b>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi:<br>xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....                      | 25  |
| <b>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</b>                                                                                                       |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini<br>rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....          | 30  |
| <b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>                                                                                                        |     |
| Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati .....                                                | 33  |
| <b>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</b>                                                                                                        |     |
| Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....                                                      | 39  |
| <b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....                                                                       | 44  |
| <b>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</b>                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni<br>shakllantirishning o'ziga xos jihatlari..... | 48  |
| <b>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</b>                                                                                                        |     |
| Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners<br>in English Language Classes Through Digital Technologies .....    | 52  |
| <b>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</b>                                                                                                        |     |
| Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....                                                               | 55  |
| <b>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</b>                                                                                                            |     |
| "Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....                                                             | 59  |
| <b>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</b>                                                                                                      |     |
| O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....                                                                                       | 65  |
| <b>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</b>                                                                                                          |     |
| Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda<br>emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....            | 68  |
| <b>Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich</b>                                                                                                        |     |
| O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....                                     | 72  |
| <b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....                                                       | 76  |
| <b>Boypolvonov Barot Djonqobulovich</b>                                                                                                       |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning<br>lingvistik va lingvometodik talqini.....             | 81  |
| <b>Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi</b>                                                                                                       |     |
| O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....                                     | 86  |
| <b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....                                                             | 90  |
| <b>Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna</b>                                                                                                           |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....                                    | 96  |
| <b>Koshayeva Sansabila Kamiljanovna</b>                                                                                                       |     |
| Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....                                           | 100 |
| <b>Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna</b>                                                                                                        |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....                                      | 105 |
| <b>Murodova Madina Karim qizi</b>                                                                                                             |     |
| Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....                                                                   | 108 |
| <b>Ortiqov Mironshoh Sodiqovich</b>                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda<br>Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish..... | 110 |
| <b>Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna</b>                                                                                                                               |     |
| O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....                                                                                | 115 |
| <b>Quronboyeva Mavluda Bahodirovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....                                                                                                                       | 120 |
| <b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>                                                                                                                                           |     |
| 6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....                                                                                      | 123 |
| <b>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....                                                                         | 128 |
| <b>Yusupov Ulug'bek Kadirovich</b>                                                                                                                                         |     |
| Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda<br>motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish .....                                      | 132 |
| <b>F. Zaynabuddinov</b>                                                                                                                                                    |     |
| Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза .....                                                                                        | 135 |
| <b>Киреева Эльвина Фларитовна</b>                                                                                                                                          |     |
| Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar .....                                                                                                 | 140 |
| <b>Sanayev Gayrat Shermuxamedovich</b>                                                                                                                                     |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning<br>pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....                                                      | 144 |
| <b>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</b>                                                                                                                                       |     |
| Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari .....                                                                                 | 148 |
| <b>Davletova A.</b>                                                                                                                                                        |     |
| Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari .....                                                                                           | 152 |
| <b>G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi</b>                                                                                                                                   |     |
| Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .....                                                      | 156 |
| <b>Madmarova Gulchexra Qodirovna</b>                                                                                                                                       |     |
| O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish .....                                                                          | 160 |
| <b>Mamajonov Mo'minjon</b>                                                                                                                                                 |     |
| Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli .....                                                                       | 165 |
| <b>Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi</b>                                                                                                                                  |     |
| Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....                                                                                          | 169 |
| <b>Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda<br>interfaol metodlarning ahamiyati.....                                                  | 173 |
| <b>Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna</b>                                                                                                                               |     |
| Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini,<br>ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari .....            | 178 |
| <b>Odilova Feruzaxon Valijon qizi</b>                                                                                                                                      |     |
| PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda<br>IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....                                                      | 184 |
| <b>Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi</b>                                                                                                                                 |     |
| Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya<br>zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari .....                                                   | 188 |
| <b>Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich</b>                                                                                                                                     |     |
| Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning<br>pedagogik shart-sharoitlari .....                                                   | 192 |
| <b>Rasulova Nozigul Abdivahid qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish .....                                                              | 196 |
| <b>Sharfova Nilufar Ilhom qizi</b>                                                                                                                                         |     |
| Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning<br>pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....                                               | 200 |
| <b>Tuxtasinova Munira Ibragimovna</b>                                                                                                                                      |     |
| Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish<br>va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....                                | 204 |
| <b>Umarova Madinabonu Bahodir qizi</b>                                                                                                                                     |     |



|                                                                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari .....                                    | 208 |
| <a href="#">Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</a>                                                                                           |     |
| Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili..... | 214 |
| <a href="#">Zarina Itolmasova</a>                                                                                                           |     |
| Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....                                                                       | 219 |
| <a href="#">Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</a>                                                                                              |     |
| Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....                           | 222 |
| <a href="#">Мамадалиева Зарина</a>                                                                                                          |     |
| Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil .....                                           | 226 |
| <a href="#">Ashurova Dilrabo Isroil qizi</a>                                                                                                |     |
| Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..                               | 230 |
| <a href="#">Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</a>                                                                                            |     |
| Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....                                                     | 233 |
| <a href="#">G. S. Kaxarova</a>                                                                                                              |     |
| Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...                                   | 236 |
| <a href="#">Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</a>                                                                                         |     |
| Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri .....                                                     | 240 |
| <a href="#">Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</a>                                                                                           |     |
| O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv .....                                        | 244 |
| <a href="#">Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</a>                                                                                          |     |
| Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar .....                                                              | 252 |
| <a href="#">Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</a>                                                                                          |     |
| Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati .....                                            | 258 |
| <a href="#">Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</a>                                                                                              |     |
| Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari .....                                              | 262 |
| <a href="#">Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</a>                                                                                        |     |
| Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar .....                                                                                          | 268 |
| <a href="#">Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</a>                                                                                             |     |
| Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari .....   | 272 |
| <a href="#">Xujanazarova Nozima Omonjonovna</a>                                                                                             |     |



## ESSE YOZISHNI O'RGATISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi  
Jizzax shahridagi Prezident maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ORCID: 0009-0000-4522-7450

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarga esse yozishni o'rgatishda turli metodlarning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot fast-fud mahsulotlari iste'moli masalasi misolida olib borilib, ularning o'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlash, mantiqiy bayon qilish, dalillash hamda yozma nutq ko'nikmalariga ta'siri o'rganilgan. Dars jarayonida 3H (Head, Heart, Hand) yondashuvi, "Ilgak" texnikasi, Venn diagramma, PEEL modeli kabi metod va vositalar qo'llanilgan.

**Kalit so'zlar:** differensial metod, esse yozish, tanqidiy fikrlash, fast-fud, yozma nutq, PEEL modeli, Venn diagramma, 3H yondashuvi, o'quv metodikasi, vizual vositalar.

**Abstract:** This article analyzes the effectiveness of various methods in teaching students to write essays. The study, conducted on the example of fast-food consumption, examined its impact on the development of students' critical and analytical thinking, logical expression, argumentation, and writing skills. The lesson incorporated methods and tools such as the 3H (Head, Heart, Hand) approach, the "Hook" technique, Venn diagram, and PEEL model.

**Key words:** differentiated method, essay writing, critical thinking, fast food, writing skills, PEEL model, Venn diagram, 3H approach, teaching methodology, visual aids.

**Аннотация:** В данной статье проанализирована эффективность различных методов обучения учащихся написанию эссе. Исследование проведено на примере темы потребления продуктов фаст-фуда, в ходе которого изучалось их влияние на развитие критического и аналитического мышления, логичного изложения, аргументации и письменной речи учащихся. В процессе урока были применены такие методы и средства, как подход 3H (Head, Heart, Hand), техника "Крючок", диаграмма Венна, модель PEEL.

**Ключевые слова:** дифференцированный метод, написание эссе, критическое мышление, фаст-фуд, письменная речь, модель PEEL, диаграмма Венна, подход 3H, методика обучения, визуальные средства.

### KIRISH

XXI asrda o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi, uning mustaqil fikrlashi va ijtimoiy-hayotiy muammolarga nisbatan o'z nuqtayi nazarini asosli ifodalashi ta'lim jarayonining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarni esse janrida yozishga o'rgatish ularning tafakkur darajasini, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida ilmiy-nazariy asosga ega bo'lib bormoqda.

Adabiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda esse janri o'zining subyektivlik, erkin fikrlash, ijodiy izlanish kabi xususiyatlari bilan boshqa yozma nutq turlaridan ajralib turadi. Esse yozish orqali o'quvchilar nafaqat matn tuzish ko'nikmasini egallaydilar, balki ijtimoiy-axloqiy masalalarga individual yondasha olish, adabiy-estetik tafakkurni mustahkamlash, tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, bu jarayon o'quvchining ijtimoiy va madaniy dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim tizimida yozma nutq, xususan, esse yozish ko'nikmasini shakllantirish masalasi xalqaro miqyosda keng ko'lamda o'rganilmoqda. Talabalarda va o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, dalillash va tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda esse janri o'ta muhim vosita sifatida baholanadi. Ilmiy-adabiy adabiyotlarda esse yozish bo'yicha ikki asosiy yondashuv kuzatiladi: strukturaviy (product-based)



va jarayon yo'naltirilgan (process-based) yondashuvlar. Ularning har biri alohida metodik yondashuvlar, strategiyalar va mashq shakllarini nazarda tutadi.

Xorijiy tajriba misolida Steve Graham va Amy Gillespie tomonidan ishlab chiqilgan "Evidence-based practices for teaching writing" tavsiyalari e'tiborga molikdir (Graham & Gillespie, 2020, b. 12–16). Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, esse yozishni o'rgatish bir martalik topshiriq emas, balki ko'p bosqichli va integrallashgan metodologiyani talab qiladi. Tadqiqotchi nuqtayi nazaridan, bu yondashuv o'quvchilarning yozuvga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantirishda, shuningdek, fikrni tahliliy asosda izohlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Yana bir muhim metodik manba sifatida Kerry Boakesning "How to approach essay writing" nomli maqolasi tilga olinadi. Muallif esse o'rgatishda product, process va genre-based yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi (Boakes, 2022, b. 8). Ayniqsa, "genre-based" yondashuvning afzalligi shundaki, unda esse yozish kontekstual vazifaga, ya'ni maqsadli va auditoriyaga mos holda tashkil qilinadi. Harvard Universitetining Writing Project qo'llanmalarida esa esse yozish o'qituvchining baholovchi roldan ko'ra, yo'naltiruvchi, tahlil qiluvchi, hamfikir sifatidagi ishtirokini kuchaytirish zarurligi e'tirof etiladi (Harvard Writing Project, 2021, b. 21). U yerda o'qituvchi vazifasi – o'quvchi fikrining chuqurlashuviga yordam berish, savol qo'yish, muallif pozitsiyasini aniqlashtirishga undashdir. Ushbu holat o'qituvchining esse yozuvini rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi kontekstda tashkil qilishiga urg'u beradi.

O'zbek tilidagi adabiyotlar tahliliga kelsak, Nuriyeva S. S. o'zining "O'quvchilarda esse yozish ko'nikmasini shakllantirish" nomli maqolasida esse va insho o'rtasidagi semantik va kompozitsion farqlarni aniqlab beradi hamda ayniqsa argumentativ esse tuzilmasini o'rgatish modelini ilgari suradi (Nuriyeva, 2025, b. 28). Muallif tezis, asosiy dalillar va xulosadan iborat struktura asosida o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvni asoslab beradi. Tadqiqotchining fikricha, bu maqola boshlang'ich bosqichda tuzilgan strukturaviy model sifatida samarali bo'lishi mumkin. Rabbimova X. va Yoqubov I. tomonidan yozilgan maqolada o'quvchilarning yozma nutqdagi faoliyatini tahlil qilish orqali xatolarni aniqlash, mashqlar tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish masalasi yoritiladi (Rabbimova & Yoqubov, 2025, b. 15–16). Mualliflar lingvodidaktik jihatdan asoslangan metodik yondashuvlarni taqdim etgan bo'lib, ular orqali esse yozish kompetensiyasining tahliliy va funksional komponentlari rivojlantiriladi. Shuningdek, Po'latova S. Ya. tomonidan taklif etilgan yondashuv o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan, amaliy tavsiyalarga boy maqola bo'lib, ayniqsa mantiqiy izchillik, paragraflararo uzviylik va asosli xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan mashqlar bilan boyitilgan (Po'latova, 2025, b. 31).

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, xorijiy adabiyotlarda esse yozishni o'rgatish ko'proq shaxsga yo'naltirilgan (learner-centered), reflektiv va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan; o'zbek tilidagi manbalarda esa strukturaviy, an'anaviy yondashuvlar ustunlik qiladi. Tadqiqotchi sifatida bu holatning sababini metodik tajribaning bosqichlari va ta'lim tizimidagi transformatsion jarayonlar bilan izohlash mumkin. Shuningdek, xorijiy tajribadagi "janr asosida yozish", "kompozitsion tanlov erkinligi", "o'qituvchi bilan hamkorlikda yozish" kabi tamoyillarni milliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish, essen shunchaki baholash vositasi emas, balki fikrlashni shakllantiruvchi metod sifatida qarash zarurligini taqozo etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy bayon, dalillarga asoslangan fikr yuritish, muammoli vaziyatga ko'pyoqlama yondashuv kabi kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, esse yozishga o'rgatish ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biridir. Quyida bu boradagi metodik yondashuvlar va ularning didaktik samaradorligi tahlil qilinadi.

1. Esse yozishga tayyorlov bosqichi. O'quvchilarni esse yozishga tayyorlashda birinchi qadamlardan biri kirish qismini qanday tuzishni o'rgatishdir. Kirish qismida mavzu yuzasidan muammo yoritilishi, asosiy nuqtai nazar aniq ko'rsatilishi va o'quvchi fikrlashiga turtki beruvchi savollar qo'yilishi kerak.

### Metodik yondashuvlar:

| Metod nomi             | Qisqacha tavsif                                       | Tavsiya etilgan topshiriq shakli                                   |
|------------------------|-------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| "Ilgak" texnikasi      | Diqqatni jalb qiluvchi ibora yoki fakt bilan boshlash | Mavzuga oid iqtibos asosida kirish yozish, o'quvchini qiziqitirish |
| 3H (Head, Heart, Hand) | Bilim, hissiyot va tajriba uyg'unligi                 | Shaxsiy tajribani mavzuga bog'lash orqali kirish yozish            |
| Venn diagrammasi       | Qarama-qarshi nuqtai nazarlarni taqqoslash            | Mavzudagi ikki fikrni taqqoslab, kirish uchun asos yaratish        |



**Misol ("Ilgak" texnikasi asosida):** "Har bir inson tanlagan ovqatining natijasi bo'lishi mumkin: salomatlikmi yoki kasallikmi?" Asosiy qismda o'quvchi o'z pozitsiyasini aniq ifodalaydi, uni dalillar bilan asoslaydi va qarama-qarshi fikrni tahlil qiladi. Bunda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

**Tavsiya etiladigan metodlar:**

| Metod nomi                                      | Tavsifi                                                                      | Mavzu asosida qo'llanishi                                   |
|-------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| PEEL (Point, Evidence, Explain, Link)           | Har bir paragrafda fikr, dalil, sharh va bog'lovchi fikrni o'z ichiga oladi  | Fast-fud sog'liq uchun zararli ekanini PEEL orqali asoslash |
| TREE (Topic sentence, Reason, Evidence, Ending) | Mantiqiy tartibda dalillash                                                  | Mavzudagi iqtisodiy nuqtai nazarni izohlash                 |
| Debate-based writing                            | Ikkita qarama-qarshi fikrni tahlil qilish orqali o'z pozitsiyasini isbotlash | Iqtisodiy foyda vs. sog'liqqa zarar masalasini yoritish     |

**Misol (PEEL asosida):** Point: Fast-fud iste'moli sog'liq uchun jiddiy xavf tug'diradi. Evidence: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yurak kasalliklarining asosiy sabablaridan biri noto'g'ri ovqatlanishdir [JST, 2023, b. 45]. Explain: Fast-fudlar tarkibidagi ortiqcha yog' va shakar inson organizmida xolesterin miqdorini oshiradi. Link: Shuning uchun bunday mahsulotlarga cheklov kiritish zarur deb hisoblayman.

**Topshiriqlar darajasi:**

| Topshiriq turi | Maqsad                         | Misol                                                                                                |
|----------------|--------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-daraja (A1)  | Mavzuni tushunish              | "Fast-fud nima? Uning sog'liqqa ta'siri qanday?" savoliga javob yozing                               |
| 2-daraja (B1)  | Dalil asosida fikr bildirish   | "Fast-fud taqiqlanishi kerak, chunki..." jumlasini davom ettiring                                    |
| 3-daraja (B2+) | Muqobil qarashni tahlil qilish | "Fast-fud ishlab chiqaruvchilar iqtisodiyot uchun foydali, degan fikrga qanday qaraysiz?" deb yozing |

Differensial metod – bu o'quvchilarning individual tayyorgarlik darajasi, bilim salohiyati, qiziqishi va o'quv uslublariga mos holda topshiriq va faoliyatlarni tashkil etish yondashuvidir. Differensial metod yordamida o'quvchilar esse yozishning barcha bosqichlarini (kirish, asosiy qism, xulosa, tahrirlash) o'z imkoniyatlariga mos darajada chuqur o'zlashtiradi. Bu esa yozma nutqdagi grammatik to'g'rilik, mantiqiy izchillik va uslubiy uyg'unlikni shakllantiradi. Esse yakunida asosiy fikrlar qisqacha umumlashtiriladi va shaxsiy xulosa beriladi. Yakuniy qismni yozishga o'rgatishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

| Metod                         | Tavsif                                                       | Topshiriq                                                                            |
|-------------------------------|--------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| "WWW + EBI" refleksiya modeli | "What went well – Even better if" orqali orqaga aloqa berish | O'quvchi o'z esse yozish jarayonini tahlil qiladi                                    |
| "So what?" metodi             | Muammoning dolzarbligi qayta yoritiladi                      | Nima sababdan mavzu muhimligini tahlil qilish                                        |
| Rephrase Technique            | Kirishdagi asosiy g'oyani yangi ifoda bilan takrorlash       | "Sog'liq va iqtisodiyot o'rtasidagi muvozanat muhimdir" kabi umumiy xulosa chiqarish |

Metodik tavsiyalarni samarali amalga oshirishda grafikalar, jadval va diagrammalardan foydalanish o'quvchilarning kognitiv qamrovini kengaytiradi. Jadval: "Fast-fud" mavzusidagi fikrlar tahlili (Venn diagramma asosida)

| Fikr turi | Sog'liq uchun xavf                | Iqtisodiy foyda                  | Umumiylik                     |
|-----------|-----------------------------------|----------------------------------|-------------------------------|
| 1-fikr    | Semizlik, diabet, yurak xastaligi | –                                | Fast-fud keng tarqalgan       |
| 2-fikr    | –                                 | Ish o'rinlari, arzon ovqatlanish | Mavzuda muqobil yondashuv bor |

Ushbu jadval asosida o'quvchi esse uchun asosiy bahs nuqtalarini belgilab oladi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadqiqot jarayonida esse yozishga o'rgatishda qo'llangan metodik yondashuvlar – "Ilgak" (Hook), PEEL modeli, 3H konsepsiyasi va Venn diagrammasi – o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy bayon va dalillarga asoslangan fikr yuritish kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli samaradorlik ko'rsatdi. "Ilgak" texnikasi kirish qismida diqqatni jamlash va muammoni aniqlashtirish imkonini berib, mavzuga qiziqish hosil qildi. PEEL modeli esa dalillarni tizimli va mantiqan izchil taqdim etish orqali yozma nutqning strukturalanganligini ta'min-



ladi. Differensial metodning integratsiyasi o'quvchilarning individual o'quv imkoniyatlarini hisobga olish, ularni shaxsiy tayyorgarlik darajasiga mos vazifalar bilan ta'minlash va shu orqali barcha ishtirokchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qildi. Kuchli tayyorgarlikka ega o'quvchilar murakkab argumentatsiya va qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilishga jalb etilgan bo'lsa, boshlang'ich darajadagi o'quvchilar fikrni aniq, qisqa va mantiqan to'g'ri shakllantirish ustida ishladilar. Venn diagrammasidan foydalanish ikki qarama-qarshi pozitsiyani (fast-fud iste'moliga cheklov kiritish zarurati va uning iqtisodiyotga ta'siri) vizual tarzda taqqoslash imkonini berdi. Bu yondashuv mavzuni ko'p yoqlama tahlil etish, dalillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va asosiy bahs nuqtalarini ajratib olish ko'nikmasini mustahkamladi.

O'tkazilgan metodik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, esse yozishga o'rgatishda differensial metodning qo'llanishi o'quvchilarning yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Xususan:

- **Kognitiv rivojlanish** – o'quvchilarda mavzuga nisbatan tanqidiy va analitik fikrlash ko'nikmalari shakllandi. "Fast-fud" mavzusini ikki pozitsiya nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali ular dalillarni to'plash, tasniflash va asosiy xulosalarni ajratib olishni o'zlashtirdilar.
- **Tizimlashtirilgan yozuv malakasi** – PEEL modeli asosida bajarilgan topshiriqlar o'quvchilarning esse tuzilishini (kirish, asosiy qism, xulosa) izchil va mantiqan bog'langan shaklda tuzishiga yordam berdi.
- **Individual yondashuvning samaradorligi** – differensial metod yordamida o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va tayyorgarligi inobatga olindi, bu esa har bir o'quvchining o'z imkoniyati doirasida muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat olib borishiga sharoit yaratdi.
- **Vizual tahlil ko'nikmasi** – Venn diagrammasidan foydalanish ikki qarama-qarshi pozitsiyani (cheklov tarafdorlari va iqtisodiy oqibatlarni ta'kidlovchilar) tizimli taqqoslash imkonini berdi, bu esa mavzuni ko'p yoqlama tushunishga xizmat qildi.
- **Yozma nutq madaniyatining oshishi** – o'quvchilar grammatik qoidalarga, uslubiy uyg'unlik va mantiqiy izchillikka amal qilgan holda yozma fikrni ifodalashni o'zlashtirdilar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, differensial metod esse yozishga o'rgatishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, u o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olish orqali mustaqil fikrlash, mantiqiy bayon va dalillash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Metodning qo'llanishi yozma nutqning grammatik to'g'riligi, uslubiy izchilligi va mazmuniy boyligini oshiradi. Shuningdek, vizual vositalar, mantiqiy tuzilmalar va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashganda, o'quvchilar mavzuga ko'pyoqlama yondashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu munosabat bilan, differensial metodni nafaqat esse yozishga o'rgatish mashg'ulotlarida, balki boshqa yozma va og'zaki nutq faoliyatlarida ham qo'llash, Venn diagramma, jadval va grafik tahlil kabi vizual vositalardan keng foydalanish, shuningdek, o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalaridagi o'sishni muntazam baholab borish va natijalarga ko'ra metodik yondashuvlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Graham, S., & Gillespie, A. (2020). Evidence-based Practices for Teaching Writing. Vanderbilt University.
2. Boakes, K. (2022). How to Approach Essay Writing. Onestopenglish.
3. Harvard Writing Project. (2021). Teaching Guides for Academic Writing. <https://writingproject.fas.harvard.edu>
4. Nuriyeva, S. S. (2025). O'quvchilarda esse yozish ko'nikmasini shakllantirish. Scientific Journal, 3(1).
5. Rabbimova, X., & Yoqubov, I. (2025). O'quvchilarning esse yozish ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar. Pedagogika Ilmi, 2(5).
6. Po'latova, S. Ya. (2025). O'quvchilarda esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar. Yangi Ilmiy Avlod, 4(3).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.